

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**J.Sultonov**

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili ..... 224

**M.A.Boltaboyev**

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati ..... 234

**Sh.B.Jumayeva**

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat ..... 239

**M.R.Sodiqova**

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) ..... 244

**A.X.Nigmatov**

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari ..... 251

**M.B.Nazirov**

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri ..... 257

**B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev**

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi ..... 260

**M.A.Maxmudov**

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati ..... 266

**I.B.Boxodirov**

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi ..... 270

**J.Sultonov**

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi ..... 273

**O.B.Nizomiddinov**

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) ..... 279

**O.H.Jaynarov**

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) ..... 284

**O.M.Normatov**

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida ..... 289

**Y.A.Shukurillayev**

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari ..... 293

## ILMIY AXBOROT

**Z.X.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar ..... 297

**X.J.Isomiddinov**

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari ..... 300

**M.B.Nazirov**

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri .... 304



UO'K: 34.02

**O'ZBEKISTON SSRDA LOTIN YOZUVINING JORIY ETILISHI: MUAMMO VA  
ZIDDIYATLAR (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)**

**ВНЕДРЕНИЕ ЛАТИНСКОГО АЛФАВИТА В УЗБЕКСКОЙ ССР: ПРОБЛЕМЫ И  
ПРОТИВОРЕЧИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**INTRODUCTION OF THE LATIN SCRIPT IN THE UZBEK SSR: PROBLEMS AND  
CONTRADICTIONS (USING THE FERGANA REGION AS AN EXAMPLE)**

Nizomiddinov Odiljon Baxodirovich 

Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Maqolada XX asrning 20-yillarida O'zbekiston SSRda arab alifbosidan lotin yozuviga o'tish jarayonining mahalliy madaniyat va savodxonlik tizimiga ko'satgan ta'siri yoritilgan. Ayniqsa, Farg'ona viloyatida lotinlashtirish jarayoni qiyinchiliklar bilan kechib, darsliklar, nashriyot xodimlari va o'quv materiallarining etishmovchiligi sababli muammolar yuzaga kelganligi ta'kidlanadi. 1928-yilda O'zbekiston SSR hukumati tomonidan lotin alifbosi asosidagi yangi yozuv qabul qilinib, Farg'ona viloyatida "Yangi Farg'ona" gazetasi va boshqa nashrlar orqali targ'ib etilishi bayon qilingan. Shu bilan birga, bu jarayon mahalliy aholining madaniy merosi va tarixiy yozma an'analaridan uzilishiga sabab bo'lishi alohida ta'kidlangan. Soviet hukumati tomonidan ushbu islohot "madaniy taraqqiyot" deb talqin etilgan bo'lsa-da, amalda bu jarayon milliy madaniyatning zaiflashishi va savodxonlik darajasining pasayishi bilan izohlanishi keltirib o'tilgan.*

**Аннотация**

*В статье освещается влияние процесса перехода от арабского алфавита к латинской графике в Узбекской ССР в 20-х годах на местную культуру и систему грамотности. В частности, отмечается, что процесс латинизации в Ферганской области протекал с трудностями, возникли проблемы из-за нехватки учебников, издательского персонала и учебных материалов. В 1928 году правительством Узбекской ССР была принята новая письменность на основе латинского алфавита, которая распространялась в Ферганской области через газету "Янги Фарг'она" и другие издания. При этом особо подчеркивается, что этот процесс привел к отрыву местного населения от культурного наследия и исторических письменных традиций. Хотя советское правительство представляло эту реформу как "культурный прогресс", на практике этот процесс сопровождался ослаблением национальной культуры и снижением уровня грамотности.*

**Abstract**

*This article examines the impact of the transition from the Arabic alphabet to Latin script in the Uzbek SSR during the 20s on the local culture and literacy system. It highlights that the Latinization process in the Fergana region was particularly challenging, with issues arising from shortages of textbooks, publishing personnel, and educational materials. In 1928, the Uzbek SSR government adopted a new writing system based on the Latin alphabet, which was promoted in the Fergana region through the newspaper "Yangi Farg'ona" and other publications. The article emphasizes that this process led to a disconnect between the local population and their cultural heritage and historical written traditions. While the Soviet government portrayed this reform as "cultural progress", the article argues that in practice, this process resulted in the weakening of national culture and a decline in literacy levels.*

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston SSR, lotin alifbosi, yozuv inqilobi, savodxonlik, madaniy meros, siyosiy tus, madaniy tadbirlar, milliy ziyojolar.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, латинский алфавит, революция письменности, грамотность, культурное наследие, политический окрас, культурные мероприятия, национальная интелигенция.

**Key words:** Uzbek SSR, Latin alphabet, writing reform, literacy, cultural heritage, political overtones, cultural initiatives, national intellectuals.

**KIRISH**

Jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida yozuv hamda imlo nihoyatda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Millatning fikriy salohiyati va kundalik turmush tarzi bevosita yozuv orqali namoyon bo'ladi. Yozuv tizimidagi har qanday o'zgarish murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning turli jahbalariga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu o'zgarish ijobjiy hamda salbiy oqibatlarga ega bo'lib, millat ma'naviyati va madaniy taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi.

XX asrning 20-yillarda madaniyat tarixshunosligi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda jamiyatda kechgan o'zgarishlar ichida yozuv masalasi alohida dolzarb mavzulardan biri sifatida muhokama qilingan. Bu jarayonda turli qarashlar, babs va munozaralar yuzaga kelgan bo'lib, bu holat jamiyatning madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Turkiston xalqlarining milliy madaniy merosini yangilash va rivojlantirish masalasi XX asrning dastlabki yillarda dolzarb muammolardan biri edi. Bu jarayonda yozuv tizimini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etdi. Sovet hokimiyati bunday islohotni o'zining madaniy siyosatining asosiy yo'naliishlaridan biri sifatida ilgari surdi. Dastlab bu borada ko'p tomonlama va uzoq davom etgan munozaralar bo'ldi. Chunki inqilobdan keyingi dastlabki yillarda bu rejaning amalga oshirilishi dolzarb muammolar va noaniqliklar tufayli qiyin kechdi. Shu bois, kommunistik mafkura bu islohotlarda milliy xususiyatlarni inobatga olishga harakat qildi.

Albatta, shuni ham ta'kidlab o'tish o'rinklik, turkiy yozuv tizimini tubdan isloh qilish zarurati ham muhim masala bo'lib qolgandi. Chunki mazkur davrda mavjud bo'lgan eski imlo qoidalari murakkab va aniq me'yorlarga ega emasdi. Bu esa turli chalkashliklarga sabab bo'lar edi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

O'zbek yozushi tarixida 1920–1930-yillarda kechgan kurash va eski o'zbek yozuvini lotinlashtirish jarayonini tahlil qilar ekanmiz, bu davrda amalga oshirilgan "yozuv inqilobi" mahalliy aholining savodsizligini oshirishga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida talqin etish mumkin. Aslida, bu jarayon mazkur davrda Sovet hokimiyatining milliy madaniyatlarni inkor etishga qaratilgan siyosatining bir ko'rinishi edi. Yozuv almashtirish jarayoni nafaqat til va madaniyatga, balki xalqning o'z milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu esa, o'z navbatida, mintaqadagi savodxonlik darajasining keskin pasayishiga olib keldi.

XX asrning 20-yillarda ishlab chiqilgan lotin alifbosini joriy qilish va yozuv masalalari N. Mustafayeva [1:88-108] va G. Asatovalar [2:206] tomonidan tahlil qilingan. Ushbu davrda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish jarayoni ijtimoiy-madaniy muhitda katta babs-munozaralarga sabab bo'lgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar ushbu jarayonning siyosiy va ilmiy jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Mualliflar o'z ishlarida lotin alifbosining joriy etilishi ortidagi ziddiyatlar va bu jarayonning milliy madaniyatga ta'sirini ilmiy tahlil qilganlar.

O'zbekistonning 1920–1930-yillar madaniyati tarixini o'rganish jarayonida til va yozuv masalasi muhim o'rinn tutganligini bir qator xorijiy tadqiqotlardan ham sezish mumkin. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar orasida qator olimlarning yondashuvlari e'tiborga loyiq. Masalan, E. Beykon 1920-yillarning o'rtalariga kelib lotin alifbosining targ'iboti siyosiy tus olganini qayd etadi [4:191]. T. Martin esa lotin alifbosining joriy etilishi jarayonini milliy madaniyatlarni parchalashga qaratilgan hududiy chegaralanish yoki milliy ziyyolilar masalasi kabi inqilobiy tadbirlardan biri sifatida talqin qiladi [5:188-190]. A. Xolid esa eski o'zbek yozushi bilan bog'liq kurashni sovet hokimiyati va milliy ziyyolilar o'rtasidagi mafkuraviy to'qnashuvning bir ko'rinishi sifatida baholaydi [6:285-286]. Ushbu yondashuvlarning barchasi O'zbekistonning o'sha davrdagi madaniy muhitida yozuv islohoti naqadar muhim siyosiy va madaniy jarayon bo'lganini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo davlatlarida lotin alifbosiga o'tish tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bu jarayonni baholashda yangi alifbo targ'iboti partiya talabi asosida tashkil etilganligini ta'kidlab, uni "ruslashtirish" siyosatining bir qismi sifatida izohlaydi.

1920-yillarda o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'zgartirish targ'iboti yirik madaniy tadbirlardan biri bo'ldi. Shu bois arab alifbosini lotinlashtirish masalasi ayniqsa 1924-yildan e'tiboran rasmiy doiralarda faol muhokama qilina boshladi. O'sha yili "Жизнь национальностей" jurnalida bu muammo bo'yicha munozaralari sahifa ochilib, unda bir qator rasmiy vakillar ishtiroy etishdi. Keyinchalik ushbu maqolalar to'plam shaklida Sharqshunoslik Ilmiy Assotsiatsiyasi tomonidan kitobcha tarzida tayyorlanib, 1926-yilda chop etildi [7:18].

Aksariyat mualliflar, xususan, M. Shaxtinskiy lotinlashtirish g'oyasining faol tarafdarlaridan bo'lib, ushbu jarayonni "Sharq xalqlarining Yevropa tillarini o'rganishini osonlashtirib, Sharqni Yevropa madaniy doirasiga yaqinlashtiradi", – deb ta'kidlagan edi.

Nazir To'raqulov lotinlashtirish masalasiga ijobjiy yondashgan bo'lsa-da, lotin alifbosiga keskin o'tishga qarshi bo'lgan. U arab yozuvining yo'q qilinishi xalqlarning madaniy taraqqiyotiga zarar etkazishini ta'kidlagan. 1926-yilgi I Butunittifoq Turkologiya syezdida To'raqulov arab alifbosiga qarshi keskin fikr bildirgan bo'lsa-da, bu jarayon mahalliy sharoit va ehtiyojlarga mos ravishda hal etilishi lozimligini qayd etgan. Biroq, bu davrga kelib lotinlashtirish masalasi siyosiy tus olib, arab yozuvining inkor etilishi milliy ziyyolilar orasida tashvish uyg'otgan edi. Ular arab yozuvining to'liq yo'q

## TARIX

bo'lib ketishi millatlarning madaniy merosidan uzilib qolishiga olib kelishini tushunib etgan edilar. Afsuski, bunday fikrlar e'tiborsiz qoldi va keyinchalik qatag'on yillarida bu shaxslar asossiz ayblovlarga duchor bo'ldilar.

1927-yil iyun oyida Bokuda o'tkazilgan Butunitiffoq Yangi Turk Alifbosi Markaziy Qo'mitasining I plenumi turkiy xalqlarning yangi alifbosini isloh qilish masalasida yakdil kelishuvga erisha olmadi. Lekin O'zbekistonda lotin alifbosiga o'tish siyosati aynan Bokudagi yig'ilishdan keyin amaliy tus oldi. Bu borada bir qator mualliflar, jumladan Y. Oxunboboyev, Bogu, M. Bogдановлар о'з мақолаларда бу jarayonni targ'ib qilishdi. 1926-yil 9-iyunda Respublika Markaziy Ijroqo'mining 4-sessiyasi doirasida Y. Oxunboboyev raisligida 44 kishidan iborat O'zbek Yangi Alifbo Markaziy Qo'mitasi (O'zYAMQ) tashkil etildi.

1928-yil mart oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 3-sessiyasida lotin harflariga asoslangan yangi o'zbek davlat alifbosi tasdiqlandi. Shu yildan boshlab O'zbekiston Yangi Alifbo Markaziy Qo'mitasi tomonidan "Alanga" jurnali va "Qizil tamg'a" gazetasi chop etila boshlandi. Mazkur nashrlarning asosiy maqsadi lotin yozuvini targ'ib qilishga qaratilgan edi. Shuningdek, "Alanga" va "Maorif va O'qituvchi" jurnallarining maxsus sahifalarida O'zbekiston viloyatlarida lotin yozuviga o'tish jarayoni borishi haqida doimiy ravishda "joylarning hisoboti" e'lon qilinib turdi [8].

1927–28-yillarda O'zbekiston Yangi Alifbo Markaziy Qo'mitasi tomonidan lotin alifbosini amaliyatga tatbiq etish bo'yicha besh yillik (1928–1932-yillar) reja ishlab chiqildi. Unga ko'ra, bu jarayon 1931–1932-yillar oxiriga qadar yakunlanishi belgilangan edi. Biroq, Butunitiffoq Yangi Turk Alifbosi Markaziy Qo'mitasining III plenumida ushbu reja muddatidan oldin, ya'ni 1930-yil 7-noyabrga qadar amalga oshirilishi shart qilib qo'yildi [9].

Amalda esa yangi alifboda chop etilgan darsliklarning etishmovchiligi sababli o'quv muassasalarida faoliyat ikkita alifboda olib borildi. Ayniqsa, bu holat viloyatlarda aynan sodir bo'ldi. Lotin yozuvida mutaxassislar, matbaa va nashriyot xodimlari etishmovchiligi buni yaqqol ko'rsatib qo'ydi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish siyosati amalga oshirilgandan so'ng, I.V. Stalin hokimiyyati tomonidan "ruslashtirish" siyosati joriy etila boshlandi. SSSR tarkibiga kirgan xalqlarning asrlar davomida shakllangan milliy madaniyati va an'analarini yo'q qilish maqsadida, bolshevizm g'oyalariga asoslangan madaniyatni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Islomiy an'analarni zaiflashtirish maqsadida arab yozushi isloh qilinib, avvaliga lotin alifbosiga, keyin esa kiril alifbosiga o'tkazildi [10:11].

Farg'onada madaniy qurilishning eng muhim vazifasi aholi savodsizligini tugatish edi [10:75]. 1928-yilda arab alifbosi bo'yicha lotinlashtirilgan alifbe qabul qilindi [11]. Sovet mafkurasi asosida yozilgan tadqiqot ishlarida o'zbek xalqining madaniyatini rivojlantirish, xalq ta'limini kengaytirish arab yozuvini yangi, zamonaviy va o'sha davr uchun ko'proq rivojlangan lotin yozushi bilan almashtirish orqali amalga oshirilganligi ta'kidlandi [12:32]. Shuningdek, yangi yozuvni kiritish o'zini to'liq oqlaganligi va madaniy ko'rsatkichlarni oshirishga xizmat qilganligi ham keltirib o'tildi [13:49]. Aslida esa, yangi yozuvni joriy qilish savodxonlikni oshirishga xizmat qilish o'rniga, aksincha, vaqtinchalik bo'lsa-da, ma'lum bir madaniy va ta'limdagi uzilishlarni yuzaga keltirdi. Arab yozuvini o'zgartirish, asosan, islomiy an'analarni zaiflashtirish va avvalgi yozma madaniyatning o'zligini yo'qotishga qaratilgan edi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholining tarixiy yozma merosidan uzilib qolishiga olib keldi.

Ushbu mavzuga taalluqli xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, "yozma madaniyat qo'lyozmalar sohasi bilan cheklanishga majbur bo'lib qoldi" [14:183].

Tadqiqot davriga oid arxiv fondlarida saqlangan hujjatlar o'rganilganda, faqat, mahalliy o'qituvchilar va ayrim hollarda xalq tomonidan yozilgan arzimas ko'rinishdagi shikoyatlar lotin alifbosida yozilganligiga guvoh bo'lish mumkin [15]. Bir jihatdan bu holat yangi alifbo tizimi joriy etilishidagi murakkabliklar va aholi orasidagi savodxonlik darajasining pastligi bilan baholash mumkin. Biroq, mayjud yozuvlarda Sovet hukumati tomonidan yuborilgan buyruqlarning deyarli uchramasligi shuni ko'rsatadiki, rahbariyat yangi alifboga o'tish jarayonini yuqori darajadagi rasmiy hujjatlar bilan nazorat qilishga etarlicha e'tibor bermagan va bu masalaga lozim darajada jiddiy yondashmagan. Xususan, arxiv hujjatlarida saqlangan Farg'ona okrugi ijroiya qo'mitasining 1929-yil 1-dekabrdagi 80-sonli buyrug'ining 2-bandida "1930-yil 1-yanvardan keyin muassasa va

tashkilotlarda ish yuritish va yozishmalarni eski arab alifbesida yurgizilishi man qilingan, lekin ushbu qoida muassasalarga ariza va shikoyatlarni eski arab alifbesida berib turgan huquqiy (yuridik) kishilarga aloqador emasligi" ta'kidlangan [16]. Shuningdek "Yangi Farg'ona" gazetasining tahrir hay'atiga 1930-yil 1-yanvardan kechiktirmasdan gazetaning teng yarmini, 1-martdan tamoman yangi (lotin) alifbeda nashr qilish vazifasi yuklatilgan [17].

Hukumatning bunday munosabatidan ham sezish mumkinki, yozuvning o'zgartirilishi, faqat savodxonlikni oshirish bilan bo'liq bo'lgan jarayon emas edi.

Lotin yozuvini o'zlashtirish jarayoni va eski alifboden voz kechish qat'iy nazorat ostida amalga oshirilgani sababli, shaxslar an'anaviy yozuvdan foydalanishdan qochishgan. Ayniqsa, rasmiy hujjatlarga eski alifboda imzo qo'yish xavfli bo'lib, bu holat jamoatchilik orasida ehtiyyotkorlikni oshirgan. Natijada, ko'pchilik shaxsiy imzo o'rniga hujjatlarda barmoq izini qoldirish bilan cheklangan [18].

Lotin yozuvining targ'ibot ishlari jarayoniga erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham faol jalb qilingan. Farg'ona shahridagi qizil choyxonada tashkil etilgan lotin alifbosi to'garagida zarur o'quv materiallari va tajribali o'qituvchining etishmovchiligi sababli ta'lum jarayoni ko'proq siyosiy targ'ibot mashg'ulotiga aylanib ketgan [19]. Dinga qarshi kurash harakatlarining borishi ham lotin alifbosi tarafdarlariga "kurashchan ateistlar", "arabchilarga" esa sho'ro hukumatidan norozilar, "bolsheviklar g'alabasiga" yomon ko'z bilan qarovchi diniy mutaassadilar, deb baho berildi [20]. Ushbu jarayonda komsomol faollaridan biri bo'lgan Muhabbat Habibullayeva ham lotinlashtirish harakatida faol ishtirok etgan edi. Biroq, "Hujum" harakati doirasida paranji tashlagan boshqa ayollar qatori M. Habibullayeva ham o'z turmush o'rtog'i tomonidan o'dirilgan [21:50].

Izoh o'rnida shuni qo'shimcha qilish mumkinki, savodxonlik masalasida Milliy nashriyot tzimi Farg'ona okrugida qoniqarli darajada emas edi. Sovet mafkurasi ta'siridan xoli bo'Imagan tadqiqotlarda matbuotning markaziy hududlardan chekka joylarga etib bormasligi istiqlolchilik harakati va uning yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik sharoitlari bilan izohlanadi. Bunday talqinlarda, ayniqsa, mustaqillik harakatlari va mahalliy qarshilik guruqlarining faoliyati natijasida axborot tarqatish jarayonida to'siqlar yuzaga kelgani ko'rsatiladi [22]. Aslida esa, nashr qilinadigan "Yangi Farg'ona" gazetasi mahalliy aholining, ayniqsa, qishloq aholisining milliy matbuotga bo'lgan talabini mutlaqo qondirmasdi. Boshqa adabiyotlar, masalan, jurnallar okrugda chiqarilmasdi. Respublika nashriyotiga kelsak, chiqarilayotgan nusxalar soni ham etarli emas edi [23].

Lotin alifbosini majburan o'tkazish bolsheviklar tomonidan avvaldan puxta o'ylangan tadbir edi. Va shu asosda yangi alifbo kurashiga partiya va hukumat aralasha boshladi. Lotinlashtirishga inqilobiy tus berildi, arab alifbosi tarafdarlariga "aksilinqilobchilar" degan tamg'alar yopishtirildi. Qaror ijrosidan 10 yil o'tar-o'tmas lotin yozuvining kiril imlosiga ko'chirilishi esa sovetlarning puxta o'ylangan, turkiy xalqlarning ruslashtirilishi uchun o'yab topilgan tadbiri bo'lib chiqdi [24:107].

Shuningdek, ushbu masalaga oid tadqiqotlarda o'zbek yozushi tarixida 1920–1930-yillarda kechgan jarayonlar va eski o'zbek yozuvini lotinlashtirish tarixi tahlil qilingan bo'lib [25:206], ushbu tadqiqotdan ma'lum bo'ladiki, "yozuv inqilobi" deb nomlangan jarayon mahalliy aholini savodsizlikka yo'naltirishdan iborat bo'lgan [26:19]. Shu bilan birga milliy madaniyatni inkor etishga qaratilgan bo'lib, sovet hukumatining siyosiy strategiyasining bir ko'rinishi sifatida qabul qilish mumkin.

### XULOSA

XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan yozuv islohoti, jumladan arab alifbosidan lotin yozuviga o'tish jarayoni, mahalliy madaniy muhit, savodxonlik darajasi va ijtimoiy-siyosiy hayotga bevosita ta'sir ko'rsatgan murakkab jarayonlardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu islohot dastlab madaniy-ma'rifiy islohot sifatida ko'rilgan bo'lsa-da, amalda sovet hokimiyatinning mahalliy madaniyatni zaiflashtirish va uni yagona mafkuraviy maydonga moslashtirishga qaratilgan siyosiy qarorining bir qismi sifatida amalga oshirildi.

Yangi lotin alifbosining joriy etilishi jarayonida ko'plab muammo va ziddiyatlar kuzatildi. Xususan, Farg'ona vodiysi kabi mintaqalarda lotin yozuviga o'tish qiyinchilik bilan amalga oshirilib, darsliklar, o'quv-uslubiy materiallar va malakali mutaxassislar etishmovchiligi sababli o'quv jarayonida uzilishlar yuzaga keldi. Natijada mahalliy aholining savodxonlik darajasida qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. Biroq bu jarayonning asosiy oqibatlari madaniy merosning yo'qotilishi va aholining avvalgi yozma an'analaridan uzilib qolishida yaqqol namoyon bo'ldi. Farg'ona vodiysi tajribasi shuni ko'rsatdiki, lotin alifbosini joriy etish nafaqat madaniy-ma'rifiy sohadagi islohot, balki mahalliy ziyolilarni nazorat qilish, ijtimoiy qatlamlarni mafkuraviy boshqarish va milliy o'zlikni zaiflashtirishga qaratilgan siyosiy tadbir bo'lgan. Ayniqsa, arab alifbosiga nisbatan

## TARIX

“eskilik sargiti” tamg‘asining yopishtirilishi va bu qarash tarafdarlarining “aksilingqilobchi” sifatida qatag‘on qilinishi ushbu jarayonning mafkuraviy xarakterini yanada kuchaytirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, lotin alifbosiga o‘tish jarayoni qisqa muddatli madaniy yutuqlarga erishishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli tarixiy jarayonlarda bu islohot mahalliy madaniy an‘analar, yozma meros va milliy tafakkurning shakllanishida uzilishlarga olib keldi. Sovet hokimiyatining “yozuv inqilobi” orqali amalga oshirgan bu siyosati natijasida milliy madaniyat va tarixiy xotira zaiflashgan, arab yozuvida bitilgan ilmiy va adabiy manbalarning o‘zlashtirilishi qiyinlashgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekiston SSRda lotin yozuviga o‘tish jarayoni shunchaki texnik islohot bo‘lmay, balki mahalliy madaniyat, tarixiy meros va jamiyat ongini boshqarishga qaratilgan keng qamrovli siyosiy jarayon sifatida yuz bergan. Ushbu jarayonning natijalari uzoq muddatli ijtimoiy-madaniy oqibatlarga olib kelgan bo‘lib, bu holat milliy madaniyat va ta‘lim tizimida jiddiy iz qoldirgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида. Тарих. фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999. – 88-108 б. [1:88-108]
2. Асатова Г. Языковая политика в Узбекистане в XX веке: суть, последствия и уроки. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2004. – 206 с. [2:206]
3. Нарманов Ф.А. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида маданий-маърифий муассасаларнинг ўрни. Тарих фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2020.; М.А.Махмудов. XX асрнинг 20–30-йиллари Ўзбекистонда маданий мерос масалалари (давр матбуоти материаллари асосида). Тарих фан. номз. ... дисс. – Қарши, 2022. [3]
4. Elizabeth E. Bacon. Central Asians Under Russian Rule: A Study in Culture Change. – New York: Cornell University Press, 1966. – Р. 191. [4:191]
5. Terry Martin. The affirmative action empire: Nations and nationalism in the Soviet Union, 1923-1939. – Ithaca: Cornell University Press, 2001. – Р. 188-190. [5:188-190]
6. Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR ... – Р. 285-286. [6:285-286]
7. Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида. Тарих. фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999. – 94-96 б. [7:94-96]
8. Н.Носирбеков. Қашқадарёда янги алифбе кўмита ишлари жонлана бошлади // Алланга. - 1928. - № 6-7. - Б. 25; Юсуф Иноым. Сурхондарё округида янги алифбе // Алланга. - 1928. - № 9. - Б. 20-21; Темир Нажмий. Самарқанд округи янги алифбе кўмита пленуми // Алланга. - № 10-11. - Б. 28-29; С.Иброҳим ўғли Бухоро округида янги алифбе ишлари // Алланга. - 1929. № 11. - Б. 25. [8]
9. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 130-йигма жилд. 47 – варақ [9].
10. З.Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.) – Ташкент: Tafakkur, 2011. – С.11. [10:11]
11. С.Тиллаходжаев, Т.Юлдашев, А.Гафуров. ФЕРГАНА – Ташкент: Узбекистан, 1977. – С.75. [11:75]
12. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 20<sup>а</sup> -йигма жилд. 102-варақ. [12]
13. Муродхўжаев А. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924-1949) – Ташкент: Ўздавнашр, 1949. – С. 8; С.Тиллаходжаев, Т.Юлдашев, А.Гафуров. ФЕРГАНА – Ташкент: Узбекистан, 1977. – С.32. [13]
14. Нуруллин Р.А. Очерки истории Ферганской области в советский период. – Ташкент: Фан, 1980 – С. 49. [14:49]
15. Kolid A. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob[Matn]. – Toshkent. Akademnashr. 2022. – В.183. [15:183]
16. ФВДА. 83, 131-фондлар. [16]
17. 350-фонд. 1-рўйхат. 70-йигма жилд. 17 - варақ [17]
18. ФВДА. 350-фонд. 1-рўйхат. 70-йигма жилд. 18 - варақ [18]
19. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 130-йигма жилд. 47 – варақ. [19]
20. Нарманов Ф.А. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида маданий-маърифий муассасаларнинг ўрни. Тарих фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2020. [20]
21. Мустафаева Н. XX асрнинг 20–30-йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида. Тарих. фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999. – 96 Б.; ўша муаллиф. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили. – Тошкент: Navro‘z. 2014. – 334 Б. [21]
22. Юлдашбаева Ф. Моя судьба. Рассказы о жизни. – Ташкент, Ёш гвардия, 1972. – 50.С. [22:50]
23. Бабаева М. Культурное строительство в Ферганской области в 1925-1932 гг. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1964.; Касимова М. Борьба трудящихся Ферганской области за восстановление народного хозяйства (1921–1925-гг.). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1968.; Умаров А. Культурная жизнь Ферганской долины во второй половине XIX – начале XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1985.; Хайтбаев Э. Комсомольская организatsия Ферганской области в борьбе за укрепление советской власти (1917–1924 годы). Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. [23]
24. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 130-йигма жилд. 21 – варақ. [24]
25. Мустафаева Н. XX асрнинг 20–30-йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида. Тарих. фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999. – 107 б. [25:107]
26. Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида. Тарих. фан. ном. ... дисс... – Тошкент, 1999. – 88-108 б.; Асатова Г. Языковая политика в Узбекистане в XX веке: суть, последствия и уроки. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2004. – 206 с. [26]
27. Нарманов Ф.А. XX асрнинг 20-30 йилларида Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида маданий-маърифий муассасаларнинг ўрни. Тарих фан. ном. ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 19 б. [27:19]